Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

QADIMGI MIF VA AFSONALAR-INSONIYAT TASAVVURINING YARATILISHI

Oripova Madinabonu Ravshanjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti,filologiya fakulteti 1-bosqich, 25.107-guruh talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20036958

Annotatsiya: Ushbu tezisda qadimgi mif va afsonalar,mif turlari va ulardagi obrazlar tahlil qilinadi.Bundan tashqari mif va afsonalarning kelib chiqishini ham ko‘rishimiz mumkin.Xususan,qadimgi miflarning asarlar yaratilishidagi ahamiyati ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: mifologiya,mif,afsona,mif turlari(ibtidoiy,samoviy,antropogenik va boshqa miflar),Gerakl obrazi.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются древние мифы и легенды, их виды, а также анализируются образы, представленные в них. Кроме того, освещается происхождение мифов и легенд. В частности, раскрывается значение древних мифов в создании художественных произведений.

Ключевые слова: мифология, миф, легенда, виды мифов (первобытные, небесные, антропогенные и другие мифы), образ Геракла.

Annotation: This thesis examines ancient myths and legends, their types, and analyzes the characters depicted in them. It also explores the origins of myths and legends. In particular, it reveals the significance of ancient myths in the creation of literary works.

Keywords: mythology, myth, legend, types of myths (primitive, celestial, anthropogenic and other myths), the image of Hercules.

Mifologiya — muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, o‘zbek mifologiyasi insoniyat ma’naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. Mifologiyaning asosini qadimgi insonlarning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo‘lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi.Xususan, Osiris (qadimiy Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan.

„Mif" va „afsona" atamalariga to‘xtaladigan bo‘lsak,mif (yunoncha. mithos — afsona, rivoyat, asotir) — qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga oladi. Mif qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi hisoblanadi.U tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir.Mif orqali biz qadimgi dunyo haqida bir qancha tasavvurlarga ega bo‘lishimiz mumkin.Bundan ko‘rinadiki,mif bu- ibtidoiy insonlarning tabiatga bo‘lgan munosabatidir.Miflar yaratilishiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi: 1.ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi miflar); 2.samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo‘lishi haqidagi miflar);

3.antropogenik miflar (g‘ayrioddiy hislatga ega bo‘lgan afsonaviy pahlavonlar, masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi va boshqalar haqidagi miflar);

4. sig‘inish miflari (muayyan e’tiqodiy ishonchlar bilan bog‘liq, masalan, hosildorlik, suv, o‘simlik, olovga sig‘inish haqidagi miflar); 5. etnogenetik miflar (urug‘,qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; masalan, 92 o‘zbek urug‘larining paydo bo‘lishi haqidagi mif) va boshqa mif turlari mavjud.

„Afsona" atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak,atama bu xalq og‘zaki ijodi (folklor) janrlaridan biridir.U xayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lsada, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo‘lib o‘tgan davr,makon ham ko‘rsatib o‘tiladi. Afsonalar og‘izdan og‘izga, eldan elga o‘tib kelgan janrlardan biri sanaladi.Afsonalar og‘zaki hikoyat bo‘lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo‘lgandek qabul qilinadi.

Misol uchun,antropogenik miflar turkumiga kiruvchi „Gerakl" obrazini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak,Gerakl (yoki Gerkules) — qadimgi yunon mifologiyasidagi eng mashhur qahramon, xudo Zevs va oddiy ayol Alkmenaning o‘g‘li. U o‘zining g‘ayritabiiy kuchi va 12 ta afsonaviy jasorati bilan tanilgan.Uning 12 jasorati quyidagilar: Nemeya arslonini o‘ldirish, Lern gidrasini yo‘q qilish, stimfal qushlarini haydash, Avdiy saroyini tozalash va boshqalardir. Gera ilohasining g‘azabi tufayli u qirol Evrisfeyga xizmat qilishga majbur bo‘lgan va o‘limli xavf tug‘diruvchi topshiriqlarni bajargan.U xalq orasida kuch,jasorat,yengilmas pahlavon timsoli sifatida mashhur bo‘lgan.Gerkules yunon mifologiyasidagi yengilmas pahlavon sifatida tasvirlanadi.

Qadimgi mif va afsonalar insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lib, ular orqali ajdodlarimiz borliqni anglashga, tabiat hodisalarini tushuntirishga va hayot mazmunini izohlashga harakat qilgan. O‘zbek xalqi ham o‘zining qadimiy mifologik obrazlari orqali dunyoni anglash jarayonidagi o‘ziga xoslik milliy tafakkurimizning shakllanishida muhim asos bo‘lib xizmat qilayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Tariximizdagi eng qadimgi mifologik obrazlar Parxat, Ardaxiva, Franxrasyon (Afrosiyob) obrazlari bilan bog‘liq asotirlar bugungi kunda ham milliy o‘zligimizni anglashda muhim ahamiyat kasb etayotgani shubhasizdir.Darhaqiqat,miflar „Avesto“, „Iliada“, „Ramayana“, „Shohnoma“, „Kalevala“, „Alpomish“, „Go‘ro‘g‘li“ kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o‘rin tutgan.

Shubhasiz,mif va afsonalar adabiyotning asosi hisoblanadi. Yozuvchilar ko'pincha qadimgi asotirlarni qayta ishlab, ularga zamonaviy ma'no yuklaydilar. Bu janrlar inson tafakkurida fantaziya va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.shuni aytishimiz mumkinki,bu asarlar og‘zaki ijod mahsuli sifatida avloddan avlodga o‘tib, xalqning ruhiy dunyosi, e’tiqodi va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan.Mif — bu qadimgi insonlarning olam, tabiat va inson yaralishi haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi ramziy hikoyadir. Ular ko‘pincha ilohiy kuchlar, ma’budalar va afsonaviy qahramonlar ishtirokida yaratilgan. Afsona esa mifga nisbatan hayotga yaqinroq bo‘lib, unda tarixiy voqealar yoki real shaxslar obrazlari badiiy tarzda aks ettiriladi. Har ikkala janr ham xalq og‘zaki ijodining muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afzalov M. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. — Toshkent, 1964-yil
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Jo‘rayev M, Shomusarov Sh, O‘zbek mifologiyasi va arab folklori, Toshkent, 2001-yil

4. Safarov O. "Afsona janrining tabiati va o'ziga xosligi" O'zbek tili va adabiyoti jurnali. — Toshkent, 2010-yil
5. Jo'rayev M. O'zbek mifologiyasi (O'quv qo'llanma). — Toshkent, 2014-yil.